

## TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING AHAMIYATI

**Guljamol Azimova JDPU**

**Ingliz tili va adabiyoti yo`nalishi 2-  
bosqich magistranti**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning til ko'nikmalarini shakllantirishda ertaklarning ahamiyati haqida muallifning fikr va mulohazalari bayon qilingan.*

***Annotation:** This article describes the author's views and opinions on the importance of fairy tales in shaping students' language skills.*

***Аннотация:** В данной статье изложены взгляды и мнения автора о значении сказок в формировании языковых навыков учащихся.*

***Kalit so'zlar:** til ko'nikmalari, ertak, qiziqarli aktivitarlar, usullar.*

***Keywords:** language skills, fairy tale, interesting activities, techniques.*

***Ключевые слова:** языковые навыки, сказка, интересные занятия, техники.*

Hozirgi kunda til ko'nikmalarini shakllantirishda asil manbalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Asil manbalar ichida ayniqsa ertaklarning o'rnini beqiyosdir. Ertaklar til ko'nikmalarini shakllantirishdagina emas, balki yosh avlod tarbiyasida ham muhim ro'l o'ynaydi.

Chet tili darslarida o'qituvchi o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun turli xil usullardan foydalanishi mumkin. Ulardan biri "Ovoz chiqarib o'qish" usulidir. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv mashg'ulotlaridan ko'zlangan asosiy maqsadlarni aniqlashtirib olishi kerak. Ertaklarni ovoz chiqarib o'qish ritm va talaffuzni tekshirgan holda mashq qilishga yordam beradi. Qolaversa, bu usul chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchi duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini ham beradi[1, 57- 58].

"Qisqa ovoz chiqarib o'qish" eng samarali usul hisoblanadi. Bu usulda sinf kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh uchun ertakdan matnlar bo'lib beriladi. O'quvchilar berilgan matnlar asosida kichik taqdimot tayyorlashlari kerak bo'ladi. O'qituvchi faqatgina yordam zarur bo'lganda yo'nalish berishi mumkin. Taqdimot

davomida nutqdagi pauzalar va urg'ular borasida o'quvchilarning o'zlari tayyorgarlik ko'rishlari talab etiladi. Bu aktivitining maqsadi- "intonatsiya, ritm, urg'u va shu kabi til xususiyatlarini rivojlantirish." [1, 68-69] Yana bir olim Lazar bu aktivitining davomi sifatida butun sinf uchun savollar tayyorlash va matnlarni bir butun ertak sifatida to'plashni tavsiya qiladi [3, 160].

Yozish ko'nikmasi odatda bolalar uchun shakllantirilishi qiyin kechadi. Ushbu ko'nikma o'quvchidan ko'proq mashq qilib, o'z ustida ishlashni talab etadi. Vendi Skot va Lisbet Ytreberg lar aytishicha, "Ko'pchilik yosh til o'rganuvchilarda yozuv ko'nikmasini oshirish uchun ko'p vaqt sarflanishi mumkin. Keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga qaramasdan yozuv ko'nikmasi chet tili o'rganishda foydali, muhim, integral qism hisoblanadi. Agar yozuv mashg'ulotlari to'g'ri ishlab chiqilsa, bu o'quvchilar uchun zavqli, qiziqarli bo'lishi mumkin [4, 68-69].

Yozish mashg'ulotlari davomida o'quvchilar daftar tutishlari muhim hisoblanadi. Ular o'qigan ertaklaridan o'rgangan yangi lug'at, hikmatli so'zlarni ushbu daftarga qayd etib borishlari mumkin bo'ladi. Matnlarni qayta yozish orqali o'quvchilar to'g'ri talaffuz qilish va imlo xatolarisiz yozishni o'rganib borishadi.

Yozish mashg'ulotlarini boshlashdan avval, o'quvchilarga yangi g'oyalar, yangi so'z boyligi berilgan holda qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bu yozishga tayyorlash bosqichi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar o'qib tugatgan ertaklariga xulosa yozishlari uchun o'qituvchi ko'plab usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, o'qituvchi doskaga bir qancha so'zlarni yozib qo'yadi. O'quvchilar esa bu so'zlarni birlashtirib yaxlit xulosa sifatida tugallaydi. Guruhlar yoki juftliklar kesimida xulosalar o'qilib, eng yaxshisi tanlab olinadi. Zarurat bo'lganda xatolar ko'zdan kechirib chiqiladi. Masalan, "Jek va loviyapoyasi" ertagidan foydalanish mumkin.

Yana bir mashxur va keng qo'llaniladigan usul-diktant yozish hisoblanadi. O'qituvchi ertakdan ma'lum qismlarni tanlab, butun sinfga o'qib beradi. O'quvchilar eshitgan so'zlarini yozib bo'lgach, guruhlar yoki juftliklar kesimida tekshirib chiqishadi.

Afsuski, ko'p holatlarda o'quvchilarning yozuv ko'nikmasini oshirish uchun faqatgina grammatik qoidalar, yangi so'zlar bilan ishlash yetarli deya hisoblanadi. Aslida, yozuv ko'nikmasini rivojlanishi o'quvchilarning ijodkorligi, hayot olamini boyitish bilan uzviy bog'liqdir. Buning uchun eng keng qo'llaniladigan metodlardan birida o'qituvchi ertakni boshlang'ich qismini o'qib beradi. O'quvchilar esa ertakni navbat bilan davom ettirib yakunlashadi. Bu usul orqali

ular ertak tafsilotlarini taxmin qilishadi, butun sinf doirasida voqealar rivojini muhokama qilishadi.

Once upon a time there was a poor widow who had an only son named Jack, and a cow named Milky-White. And all they had to live on was the milk the cow gave every morning. They carried the milk to the market and sold. But one morning Milky-White gave no milk, and they didn't know what to do.

“What shall we do, what shall we do?” cried the widow.

“Cheer up, Mother! I'll go and get work somewhere,” said Jack.

“We tried that before, and nobody wanted a boy like you,” said his mother, “we must sell Milky-White and with the money start a shop, or something.”

“All right, Mother,” said Jack, “it's market-day today. I'll soon sell Milky-White, and then we'll see what we can do.”

So he drove the cow to the market. He hadn't gone far when he met a funny-looking old man, who said to him, “Good morning, Jack.”[2, 59]

Chet tilini o'rganish asosan eshitish orqali amalga oshiriladi. Yosh til o'rganuvchilarida eshitish ko'nikmasi to'liq rivojlanmaganligi sababli o'qituvchi visual materiallar, yuz ifodasi va tana harakati yordamida zarur yo'nalishlar berishi zarur. O'quvchilar uzoq muddatli mashg'ulotlardan osongina zerikib qolishlari mumkin. Eshitish mashg'ulotlarini yanada qiziqarli bo'lishi uchun, harakatli mashqlardan keng qo'llaniladi. Shuningdek, berilgan rasmlardagi xatolarni audioni eshitgan holda topib, to'g'irlab chiqish mashg'ulotidan ham foydalanish mumkin. Yosh o'rganuvchilar ranglar olamini juda yaxshi ko'radi. Bu avzallikdan foydalangan holda, ertakni eshitib rasmlarni bo'yash mashg'uloti ham tavsiya etiladi. Bunda o'qituvchi ertakning oq-qora rasmini tanlab, o'quvchilarga sodda ko'rsatmalar beradi. Masalan, the queen's dress is red. Ko'rsatmani eshitgan o'quvchilar rasmda tasvirlangan qirolichani ko'ylagi qizil rangda ekanligini tinglab bo'yashni boshlashadi.

Ertaklarni dars davomida samarali qo'llay olish o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liqdir. Bu yo'lda turli usullar, metodlardan o'z o'rnida foydalanish til ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Collie, Joanne and Slater, Stephen. Literature in the language classroom. A resource book of ideas and activities. Great Britain Cambridge University Press, 1987.
2. J. Jacobs, J. D. Batten. English Fairy Tales. New York, Harvard college library, 1849.
3. Lazar, Gillians. Literature and Language Teaching. Great Britain, Cambridge university press, 1993.
4. Scott, Wendy A. and Ytreberg, Lisbeth H. Teaching English to Children. England. Longman Group UK Limited, 1990.
5. Abduraxmonova, D. (2021). O'qish darslarida qayta hikoyalashning muhin jihatlari. *Журнал инновации в начальном образовании*, 1(1).
6. Abduraxmonova, D. (2021). EXAMPLES OF FOLKLORE IN THE TEXTBOOK" O'QISH KITOBИ" OF UZBEK PRIMARY SCHOOLS. *Журнал инновации в начальном образовании*, (Архив№ 1).
7. Sherzod Djabbarov (2021). Инглиз тилида вақтнинг концептуаллашуви. *Journal of Central Asian Social Studies*. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue02-a1>
8. Sherzod Djabbarov (2021). КОНЦЕПТ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. <http://mamun.uz/uz/page/56>
9. Djabbarov, S. (2020). Статя Проблемы Управления Качеством Образования В Вузе В Республики Узбекистан. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4561](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4561)